



INNOVATSION DIDAKTIKA ORQALI MTTDA MUSIQA  
MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI VA NATIJADORLIGIGA ERISHISH  
YO'LLARI.

**Babayarov Eldor Komil o'g'li**

*Samarqand viloyati Bulung 'ur tuman MMTBg'a qarashli  
57, 41, 21-umumta 'lim maktablari musiqa fani katta o 'qituvchisi*

**Babayarov Eldor Komil o'g'li**

*Samarqand viloyati Bulung 'ur tuman XTBg'a qarashli 57-umumta 'lim  
maktabi musiqa fani katta o 'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda qo'llanishi mumkin bo'lgan bir necha didaktik metodlar haqida so'z boradi. Sohada faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislar ushbu maqolada keltirib o'tilgan ta'lim yo'nalishlari bilan yaqindan tanishib chiqsalar foydadan xoli bo'lmaydi.*

**Kalit so'zlar:** *Innovatsiya, ta'lim, maktabgacha ta'lim, didaktika, musiqa, metod, kompetensiya, kuylash, mashg'ulot, individual, frontal.*

Mavzuning dolzarbligi: Mavzuning dolzarbligini anglab yetish uchun ta'lim ob'ekti aynan bolajonlar ekanligini hisobga olishimizni o'zi kifoya. Ular bilan birgalikda mashg'ulot jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, bevosita ularning kelajak hayotiga ham ta'sir ko'rsatishi hech kimga sir emas. Shu bois ushbu maqolada biz aynan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan ishlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodlar xususida so'z yuritimiz. Maqolani diqqat bilan o'qib chiqing .

"Innovatsion ta'lim" atamasi bugungi ta'lim tizimida anchagina ommalashgani rost. Innovatsiya har bir sohani keng qamrab olgan bir davrda bu tabiiy hol albatta. Ammo, hamma ham ta'limning "An'anaviy" va "Innovatsion" shakllari o'rtasidagi tafovutni to'liq anglab olgani yo'q. Ayrimlarining nazarida "Innovatsion ta'lim" bu - elektron doskalarda dars o'tish, slayd ko'rsatish yoki shu kabi eng elementar unsurlar bilan kifoyalanish holos. Aslidachi ? Innovatsion ta'lim jarayoni qanday bo'ladi ? Uning an'anaviy dars jarayonidan farqi nimada? Innovatsion ta'limda o'qituvchining o'rnini qanday ?

Innovatsion ta'limda o'qituvchining o'rnini bilish uchun an'anaviy ta'limda o'qituvchining o'rniga bir nazar solish kifoya. An'anaviy ta'limda o'qituvchi yagona lider va o'quvchilar esa shunchaki tinglovchilardir. Agarda o'quvchi jim o'tirib darsni tinglamasa, demak bu o'quvchining tarbiyasida muammolar bor deb taxmin qilinadi. O'quvchilarda buyruq berilgandagina biror vazifani bajarishga moyillik bor . Jazolanishdan qo'rqish yoki bilim egallashdan ko'ra baho olishga ko'proq intilish holatlari ko'zga tashlanadi. Nazariy bilimlarning amaliyot bilan doimiy bog'lanmaganligiga ham ko'z yumolmaymiz.



Innovatsion ta'limda esa o'qituvchiga yakka hukmron emas, balki, maqsad sari eltuvchi hamroh sifatida qaraladi. Berilgan vaziyatga nisbatan o'quvchining shaxsiy fikri tinglanadi va qadrlanadi. Doimiy o'zaro fikr almashinuvchi muhit yuzaga keltiriladi. Eng zamonaviy pedagogik metodlar yordamida qisqa vaqt ichida katta miqdorda ma'lumotlarni bolaga yetkazish va uni o'quvchi tomonidan to'liq o'zlashtirilishiga erishish innovatsion ta'lim mohiyatidir. Ta'lim shakli ham individual, frontal, guruh, juftlik (ishtirokchilar soniga qarab); o'yin, ijodiy, axborot, tadqiqot (o'tkazish uslubiga ko'ra), uzoq muddatli, qisqa muddatli (davomiyligi bo'yicha) ko'rinishlarga ega. Innovatsion ta'limni interfaol metodlarsoz tasavvur qilish qiyin. Bularga "Blits savol-javob", "Zinama-zina", "Baliq skleti", "Venn diogrammasi" "Klaster", "BBB", "Bumerang" kabi keng tarqalgan pedagogik metodlar misol bo'la oladi. Bu metodlar yordamida darsni ham qiziqarli, ham samarali tashkil etish mumkin. O'qituvchi fani va dars mavzusidan kelib chiqib ushbu metodlardan eng munosibini qo'llay bilsa kifoya.

Xususan, maktabgacha ta'lim sohasiga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Bir necha yil shu sohada faoliyat yuritgan pedagog sifatida shuni ayta olamanki, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning o'ziga yarasha mashaqqati jihatlari bor. Ularda mashg'ulotga nisbatan diqqatning bardavom emasligi, turli emotsiyalarga beriluvchanlik (yig'lash, kulish, xarxasha qilish, ta'lim beruvchidan qo'rqish), yozib olib yoki o'qib yodlash kompensatsiyasining hali shakllanmaganligi tufayli bolalar bilan ishlashda turli didaktik metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishda ham shu kabi innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanilsa, bolalarda qo'shiq kuylashga, raqsga tushishga va cholg'u asboblari kuy ijro etishga nisbatan qiziqish uyg'onadi.

Ta'lim hoh an'anaviy bo'lsin, hoh innovatsion, maqsad-muddao yagonadir. O'quvchilarni aqlan, ma'nan, jismonan barkamol qilib tarbiyalash. Bunda o'qituvchining tutgan o'rni doimo dolzarb va ahamiyatlidir.